AHMAD DONISH SHAXSIYATI VA U YARATGAN G‘OYAVIY-MA’NAVIY MEROSNING TAHLILI

Axmedova Zebiniso Azizovna
Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti.
Buxoro, O‘zbekiston.
E-mail: axmedova.zebiniso@bsmi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning yirik ma’rifatparvar olimi, davlat arbobi va islohotchi ziyolisi Ahmad Donishning boy hayoti, shaxsiyati va ijtimoiy-siyosiy qarashlari tahlil qilinadi. Muallif Ahmad Donishning O‘rta Osiyo tarixidagi o‘rni, uning zamonasini chuqur tahlil qilgan asarlari, g‘oyaviy-ma’naviy merosi va islohotga chaqiruvchi fikrlari haqida to‘xtaladi. Ayniqsa, uning “Navodir ul-vakoe” va boshqa asarlarida ilgari surilgan ijtimoiy tenglik, ilm-ma’rifatga intilish, adolatli boshqaruv kabi g‘oyalarning mazmun-mohiyati chuqur o‘rganiladi. Shuningdek, Ahmad Donishning ma’rifatparvarlik qarashlari bugungi kun kontekstida baholab chiqiladi hamda uning merosini zamonaviy g‘oyaviy-ma’naviy tarbiyada qo‘llash imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari Ahmad Donish shaxsini kengroq anglash, uning tarixiy merosini hozirgi davr ehtiyojlariga mos ravishda talqin qilishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: islohot g‘oyalari, sharq falsafasi, ma’naviy meros, ilm-fan taraqqiyoti, o‘zbek ma’rifatchiligi, tarixiy shaxs, zamon va tafakkur, uyg‘onish davri, madaniy meros, turkiston jadidlari, ijtimoiy islohotlar

Аннотация: В этой статье анализируется богатая жизнь, личность и социально-политические взгляды Ахмеда Мудрого, крупного ученого-просветителя, государственного деятеля и интеллектуала-реформатора девятнадцатого века. Автор затрагивает роль Ахмада Мудариша в истории Средней Азии, его труды, в которых он глубоко анализирует свое время, его идейно-Духовное наследие и его мысли, призывающие к реформам. В частности, глубоко исследуется содержание таких идей, как социальное равенство, стремление к научному просвещению, справедливое управление, выдвинутых в его” Навадир уль-вакое " и других работах. Также будут оценены просветительские взгляды Ахмада Мудариша в контексте сегодняшнего дня и освещены возможности применения его наследия в современном идейно-духовном воспитании. Результаты исследования служат для более широкого понимания личности Ахмеда мудреца, интерпретации его исторического наследия в соответствии с потребностями настоящего времени.

Ключевые слова: идеи Реформации, восточная философия, духовное наследие, прогресс науки, узбекское просвещение, историческая личность,

ISSN 3030-3907

время и мысль, эпоха Возрождения, культурное наследие, туркестанские джадиды, социальные реформы

Annotation: this article analyzes the rich life, personality and socio-political views of Ahmad Donish, a major 19th-century Enlightenment scholar, statesman and reformist intellectual. The author touched on the role of Ahmad Donish in the history of Central Asia, his works with a deep analysis of his time, his ideological-spiritual heritage and his thoughts calling for reform. In particular, the content of such ideas as social equality, the pursuit of Science and enlightenment, fair governance, promoted in his" Nawadir ul-wakoe " and other works, is explored in depth. Also, the Enlightenment views of Ahmad Donish will be evaluated in the context of today and the possibilities of applying his heritage in modern ideological and spiritual education will be highlighted. The results of the study serve to give a wider understanding of the Personality of Ahmad dashi, to interpret his historical heritage in accordance with the needs of the current era.

Keywords: ideas of reform, Eastern philosophy, spiritual heritage, progress of science, Uzbek enlightenment, historical personality, times and thought, Renaissance, cultural heritage, Turkestan jadids, social reforms

Kirish.

Ahmad Donishning ilmiy, falsafiy va adabiy merosi O'rta Osiyo va butun Markaziy Osiyo tarixida o'zgacha o'rin tutadi. Uning asarlari nafaqat o'z davrining ijtimoiy-siyosiy muammolarini yoritgan, balki kelajak avlodlar uchun ilmiy va ma'naviy yo'l-yo'riqlarni belgilab bergan. Donishning g'oyalari va ilmiy yondashuvlari, bugungi kunda ham ta'lim, ma'naviyat va ilm-fan sohalarida katta ahamiyatga ega. Uning merosini o'rganish, zamonaviy jamiyatda ilmiy va ma'naviy rivojlanishning asosiy manbalaridan biri bo'lib qolmoqda.

19-asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo tarixida ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, xalqning og‘ir ijtimoiy ahvoli va ilm-ma’rifat tanazzuli bilan ajralib turadi. Ana shunday murakkab davrda yashab ijod qilgan ma’rifatparvar ziyolilar orasida Ahmad Donish alohida o‘rin tutadi. U o‘zining chuqur fikrlari, siyosiy qarashlari, ilm-fan va adabiyotga bo‘lgan mehr-e’tibori bilan jamiyat hayotida muhim iz qoldirgan shaxsdir. Ahmad Donish o‘z asarlarida o‘sha davr Buxoro amirligidagi ijtimoiy tengsizlik, hukmdorlar zulmi, ilmga befarqlik kabi muammolarni ochiq tanqid qilgan va xalqni ma’rifat yo‘li bilan uyg‘otishga intilgan. Uning “Navodir ul-vakoe” asari orqali jamiyatdagi mavjud illatlar, siyosiy islohotlarga ehtiyoj va o‘zgarishlar zarurati yorqin aks etgan. Donishning fikricha, taraqqiyotga erishish uchun eng avvalo ilm-fanni rivojlantirish, xalqni o‘qitish va dunyoqarashini kengaytirish zarur edi.

ISSN 3030-3907

Ushbu tadqiqot ishida Ahmad Donish shaxsiyati, uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, asarlarida ilgari surgan ma’naviy g‘oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ma’rifiy merosining bugungi kun bilan bog‘liqligi, zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy hayotdagi o‘rni ham yoritib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ahmad Donish shaxsiyati va u yaratgan g‘oyaviy-ma’naviy merosni tahlil qilishda adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari muhim o‘rin tutadi. Quyidagi matnda bu boradagi ilmiy izlanishlarning umumiy ko‘rinishi, asosiy manbalar va metodologik yondashuvlar yoritiladi.

Ahmad Donish haqida mavjud adabiyotlar asosan ikki guruhga bo‘linadi: tarixiy-biografik va g‘oyaviy-ma’naviy merosni tahlil etuvchi tadqiqotlar. Tarixiy-biografik manbalar orasida N. Norqulov, A. Rajabov, H. Ziyoyev, Sh. Shorahmedov, va M. Ishoqovlarning ishlari alohida ahamiyatga ega. Bu asarlar Ahmad Donishning hayoti, siyosiy va ijtimoiy faoliyati, ilmiy ishlari, shuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmidagi Buxoro amirligi tarixiy sharoitlarini yoritadi. Ayniqsa, Donishning o‘z asarlari — “Navodir ul-vakoe”, “Risola dar bayoni tarix” va “Mezon ut-taorix” kabi manbalar uning dunyoqarashi va g‘oyaviy qarashlarini tahlil qilishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Ahmad Donish g‘oyaviy-ma’naviy merosi asosan islohotparvarlik, ilm-fan va ma’rifatni targ‘ib etish, ijtimoiy adolat, milliy o‘zlikni anglash va taraqqiyotga bo‘lgan intilish kabi tamoyillar bilan ajralib turadi. Uning g‘oyaviy merosini o‘rganishda O‘zbekistonda milliy uyg‘onish davrining boshqa vakillari — Munis, Agahi, Furqat, Behbudi, Avloniy bilan qiyosiy tahlil qilish ham muhim metodik yondashuvdir.

Metodologik jihatdan ushbu mavzuni tadqiq etishda quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi:

Tarixiy-tahliliy yondashuv – Ahmad Donish yashagan davr ijtimoiy-siyosiy muhitini o‘rganish, uning faoliyatini zamon kontekstida tahlil qilishda qo‘llaniladi. Bu uslub yordamida Donishning islohotparvarlik g‘oyalari Buxoro amirligi sharoitida qanday shakllangani va ularning tarixiy ahamiyati ochib beriladi.

G‘oyaviy-falsafiy tahlil – Donishning ilmga, ma’rifatga, adolatga va taraqqiyotga oid qarashlarini tahlil qilish, ularning zamonaviy g‘oyaviy oqimlar bilan bog‘liqligini ochish imkonini beradi. Bu yondashuv orqali uning fikrlarining zamonaviylik bilan qanday uyg‘unlashuvini ko‘rish mumkin.

Qiyosiy-tarixiy metod – Ahmad Donishning g‘oyalarini boshqa islohotchi ziyolilar fikrlari bilan taqqoslash orqali, uning o‘ziga xoslik darajasi va umumiy oqimdagi o‘rni aniqlanadi.

ISSN 3030-3907

Matnshunoslik va manbashunoslik – Donishning asarlarini tahlil qilishda lingvistik, stilistik va kontekstual tahlil metodlari qo‘llanilib, uning asarlaridagi uslubiy xususiyatlar va g‘oya qatlamlari aniqlanadi.

Tadqiqotlarda shuningdek, zamonaviy falsafiy, pedagogik va madaniyatshunoslik yondashuvlar ham qo‘llanilib, Ahmad Donish merosining bugungi kunda dolzarbligi va ta’siri aniqlanadi. Uning islohotparvarlik qarashlari va xalqni uyg‘otishga qaratilgan g‘oyalari zamonaviy O‘zbekistonda ma’naviy tiklanish jarayonlari bilan uyg‘unlashadi.

NATIJALAR. 1869 yilning oxirida sulhga imzo chekilgandan so‘ng amir Muzaffar do‘stlik izhori va ikki mamlakat munosabatlarini mustahkamlash uchun Peterburgga o‘z elchilarini yubordi, Donishni esa safarning maxsus mirzosi etib tayinladi. Bu safarda Ahmad Donish Peterburg bilan yanada yaxshiroq tanishadi, rus amaldorlari, ma’murlari orasida siyosatdonligi bilan elchidan ortiqroq obro‘ga ega bo‘ladi. Ahmad Donish Rossiya davlatining tuzilishi, bu mamlakatning boshqa davlatlarga munosabati bilan tanishadi. Yevropa, Osiyo mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatidan xabardor bo‘ladi. U vaqtini tejab tarixiy yodgorliklar, Kronshtat qal’asi, g‘ishtsozlik korxonasi, ko‘rgazmalarni ko‘rib, xodimlar bilan suhbatlashadi.

Safar natijasida Donishning amir yaqinlaridan donoroq ekanligi ma’lum bo‘lib qoladi. Ikkinchidan, safari vaqtida u tadbirkorligi tufayli ko‘pgina ishlarni Buxoro foydasiga hal qildi va aql farosati, siyosatdonligi bilan Rossiya ma’murlari oldida katta e’tiborga ega bo‘ladi.

1874 yil fevral-mart oylarida Rossiyada nashr etilgan “Golos”, “Novoe vremya” gazetalarida Ahmad Donishning bilim-saviyasi va siyosatdonligi ta’riflangan fikrlar yozilgan bo‘lib, u “Namunali shaxs” sifatida e’tirof etilgan. Bu esa Donish rus podshosi xizmatidagi yozuvchi va olimlarning e’tiborini tortgani hamda hurmatiga sazovor bo‘lganidan dalolatdir.

Donishning o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga munosabati. Tadqiqotlar davomida Donishning ijtimoiy-siyosiy sharoitlarga munosabati ham tahlil qilindi. Uning asarlarida mamlakatning ijtimoiy hayoti, axloqiy va ma'naviy muammolari haqida chuqur mulohazalar mavjud. Donishning davlat va ijtimoiy adolat haqidagi fikrlari zamonasi uchun yuksak ijtimoiy g‘oyalar bo‘lib, keyingi avlodlar uchun ham muhim yo‘riqnoma bo‘lib qolgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Donishning ma'naviy merosi bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Ahmad Donishning o‘zbek milliy madaniyatidagi o‘rni. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, Ahmad Donishning o‘zbek milliy madaniyati va adabiyotidagi o‘rni beqiyosdir. U o‘z asarlarida milliy til va madaniyatni saqlash, rivojlantirish

ISSN 3030-3907

va targ‘ib qilishga katta e’tibor qaratgan. Donishning ilmiy va adabiy merosi, o‘zbek xalqi uchun nafaqat tarixiy, balki ma'naviy ahamiyatga ega. U o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglash va rivojlantirishda muhim vosita sifatida faoliyat yuritgan.

Zamonaviy ta'lim va ma'naviyatga ta'siri. Ahmad Donishning ilmiy va ma’naviy merosi zamonaviy ta'lim tizimiga ta’sir ko‘rsatgan. Donishning ilmiy yondashuvlari, ayniqsa, o‘rta asr tafakkuri bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy va ma'naviy qadriyatlarni o‘rgatishda qo‘llaniladi. U o‘z asarlarida, axloqiy masalalarga, inson huquqlariga va ilmiy usullarga nisbatan rivojlangan fikrlarni ifodalagan.

Tadqiqotlar natijasida Ahmad Donishning ilmiy, falsafiy, adabiy va ma'naviy merosi chuqur o‘rganilib, uning asarlarining zamonaviy jamiyatda qanday ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Uning ilmiy metodologiyasi, ma'naviy g‘oyalari, va ijtimoiy-siyosiy qarashlari bugungi jamiyatda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

MUHOKAMA. Amir Ahmad Donishga saroyda ishlashni taklif qiladi, ammo mutafakkir har xil bahonalar bilan uzoqroq yurishga harakat qilar edi. Bu orada amir uni uchinchi bor Peterburgga safarga yuboradi. Donish uch oy o‘sha yerda yashaydi (1874 yil yanvar-mart). Uning obro‘si shunchalik ko‘tariladiki, hatto imperator Aleksandr II ning o‘zi Donishning donoligini eshitib, shaxsan ehtirom ko‘rsatadi. Donish bu safarida Moskva shahrini tomosha qiladi, rus sharqshunos olimi V.Grigorev bilan tanishadi.

Bu safardan keyin yana unga davlat ishini taklif qiladilar. Donish o‘z fikrini maktub vositasida izhor qiladi. U shunday shart qo‘yadi: agar davlat ishlari o‘zgartirilsa, islohot o‘tkazilsa, shu vaqtning o‘zidayoq davlat mansabini egallashga rozi bo‘ladi. Ahmad Donish islohot va davlat boshqaruvi tartibini o‘zgartirish haqidagi takliflarini maxsus risolada aks ettirib amirga yuboradi (Keyinroq bu asarni “Risola dar nazmi tamaddun va taovun” nomi bilan “Navodir ul-vaqoe’”ga kiritadi). Bu risolada birinchi navbatda parlament sistemasini joriy etishda hokimlik huquqlarini ko‘rsatib beradi.

1889 yilning yozida Buxoroda dahshatli vabo epidemiyasi yuz berib, har kuni 500-600 kishi yostig‘ini qurita boshladi. Bolalik yillari G‘ijduvon tumanining Soktare qishlog‘ida o‘tgan Sadriddin Ayniy o‘zining “Esdaliklar” asarida vaboning o‘z oilasidagi dahshatli oqibatlarini shunday bayon qilgan:”Kichik bir xonada qator bo‘lib besh bemor yotar edi. Men ularning biridan ikkinchisining yoniga o‘tib, suv, sut ichirar, yuzlariga qo‘nayotgan chivinlarni haydar, turmoqchi bo‘lganlarida qo‘ltiqlaridan ko‘tarib yordam berar edim. Bir hafta o‘tgach, qishlog‘imizdagi barcha xonadonlar shunday ahvolga tushdi. Faqatgina qishlog‘imizda emas, butun tumanda sog‘lom odam deyarli qolmadi. Odamlar o‘la boshladilar”... O‘sha

ISSN 3030-3907

kunlarda Buxoro va uning atrofidagi qishloqlarda 25 mingdan ziyod kishi halok bo‘ldi. Odamlar birin-ketin o‘layotgan qarindosh-urug‘lari jasadlarini ko‘mishga ham ulgurmas edilar. Faqatgina kuz boshlanib, sovuq tushganidan keyin epidemiya shiddati biroz susaydi. Buxoro amiri mamlakatda zamonaviy tibbiyot tizimini vujudga keltirmasdan bunday falokatlarni bartaraf etib bo‘lmasligini tushundi.

1891 yil 15 mayda Rossiya siyosiy agentligining qistovi bilan amir Abdulahadxon farmoniga ko‘ra Buxoroda birinchi "Rus tuzem shifoxonasi" tashkil etiladi. Ahmad Donish hazm qilish bilan bog‘liq surunkali qabziyat kasalligining bezota qilishi sababli 1895 yillar boshlarida shayx Jalol darvozasi olida joylashgan lazaretning birinchi bosh vrachi Penzyakov Iosif Fyodorovichga murojaat etadi va uning qaramog‘ida davolanadi.

Ahmad Donish o‘z asri uchungina emas, bizning davrimiz uchun ham dono ustoz, bag‘rikeng muallim, ilg‘or fikrli, matonatli rahnamo, e’tiqod va maslagiga sadoqatli shaxs sifatida qadrli hisoblanadi.

XULOSA. Donishning o‘zi yaratgan ilmiy metodologiya, falsafiy yondashuvlari va adabiy asarlari nafaqat o‘z vaqtida, balki keyingi asrlar davomida ham ilmiy tafakkur va ma'naviy rivojlanishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib qolgan. Uning asarlari nafaqat falsafa, balki tarixshunoslik va ma’naviy tarbiya sohalarida ham katta ahamiyatga ega. Donishning ilmiy va ma’naviy merosi bugungi kunda jamiyatda o‘zining qadriyatlarini saqlab, yangi avlodlarga ilmiy va axloqiy yo‘l-yo‘riqlarni ko‘rsatib kelmoqda.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Ahmad Donishning asarlarini zamonaviy ilmiy-tadqiqot kontekstida o‘rganish. Donishning asarlarini yangi ilmiy metodlar bilan o‘rganish, uning falsafiy, axloqiy va ma'naviy qarashlarini chuqur tahlil qilish, uning o‘zi yaratgan ilmiy metodologiyani zamonaviy ilm-fan va ta'lim tizimlariga qo‘llash kerak. Bu orqali Donishning o‘rni va ahamiyati to‘liq ochib beriladi.

Donishning tarixiy va siyosiy g‘oyalarini o‘rganish. Ahmad Donishning siyosiy va ijtimoiy masalalarga oid qarashlarini chuqur o‘rganish va zamonaviy siyosat bilan solishtirish, uning o‘z davridagi jamiyatni yaxshilashga bo‘lgan intilishlarini tushunishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, Donishning siyosiy tafakkurini bugungi kun uchun yangilab, zamonaviy siyosat va ijtimoiy adolatni rivojlantirishda foydali yo‘l-yo‘riqlarni taqdim etadi.

Ahmad Donishning hayoti va ma'naviy merosi nafaqat ilmiy, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Uning asarlarini yanada chuqurroq o‘rganish, tarbiyaviy va ilmiy tizimlarda qo‘llash, shuningdek, Donishning falsafiy g‘oyalarini jamiyatda keng tarqatish, bugungi kunda ilm-fan

ISSN 3030-3907

va ma'naviyatni rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, jamiyatni ilmiy va ma'naviy jihatdan yuksaltirishda muhim omil bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):

1. Donish, A. (1993). “Munshaot”. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti.
2. Donish, A. (1991). “Risola dar bob-i taraqqiyot va islohot”. Tarj. va nashrga tayyorlovchi: M. Juraev.
3. Juraev, M. (1995). “Ahmad Donish va uning ma’rifiy qarashlari”. Toshkent: Fan.
4. Karimov, I. (1996). “Ma’naviy taraqqiyot yo‘lida”. Toshkent: O‘zbekiston.
5. Raximov, M. (2004). “Ahmad Donish – jadidchilik harakatining peshqadami”. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
6. Hasanov, Z. (2001). “O‘zbek ma’rifatparvarlari merosi va hozirgi davr”. Toshkent: Sharq.
7. Abdullayev, B. (2000). “O‘zbek ma’naviyati tarixidan saboqlar”. Toshkent: O‘qituvchi.
8. “O‘zbek milliy ensiklopediyasi” – A. Donish haqidagi maqola (11-jild, 2007).
9. “Ma’naviyat asoslari” (Akademik kurs darsligi), B. Qosimov boshchiligida. Toshkent: Ma’naviyat, 2004.

ISSN 3030-3907